

SALIM ASHUR

KELAJAKKA QADAM

Publisistik maqolalar

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2008

«Kelajakka qadam» — Yoshlar yili munosabati bilan nashrga tayyorlangan kitob. Muallifning turli yillarda yozilgan maqolalarini yoshlar mavzusi umumlashtiradi. Maqolalarda yoshlar hayotining turli qirralari tahlil etilgan. Kitob yoshlar, pedagoglar va yoshlar muammosi bilan shugʻullanadigan mutaxassislar uchun moʻljallangan.

ISBN 978-9943-08-244-1

© Salim Ashur «Kelajakka qadam». «Yangi asr avlodi», 2008-yil

QUTLUG' YIL

2008-yilning qishi boshqacha keldi. Sovuq bor mahoratini ishga soldi. Yerga qalin qor tushdi. Yeru osmon oqqa burkandi. Bu oqlik yangi yilni boshlab berdi. Yayrab, atrofni qiy-chuvga to'ldirib chana tortayotgan, yaxmalak uchayotgan bolalarning issiq quvonchi, shodligining harorati oldida usta sovuqning o'zi ham erib borayotir.

Sovuqning ham ayriча ruhiyati, quvonchi bo'ladi. Shundanmi, Yangi yil kayfiyati, shodligi yurtimizni uzoq vaqtgacha tark etmadi. Yangi yil quvonchi xonadonlarda, ko'ngillarda uzoq vaqtgacha kezib yurdi. Ayniqsa, Prezident archasi tantanalari, Qorbobo va Qorqiz tashrifi kichkintoy bolalar – farzandlarimizga olam-olam zavq-shavq bag'ishladi. Ularning beg'ubor kulgusida baxtiyor bolalik aks etganini ko'rdik.

2007-yil ortda qoldi. Uning ezgu mazmuni davom etadi, chunki u ko'p voqealar bilan esda qoladigan bo'ldi: Ijtimoiy himoya yilida mehr-shafqat, muruvvat va saxovat kabi xalqimizga xos tushunchalar har birimizning hayotimizdagi bosh qoidaga aylandi. Muazzam bosh kentimiz — Toshkent shahri Islom madaniyati poytaxti, deya e'lon qilindi. Bu davlatimizning xalqaro nufuzi yanada yuksalganidan dalolat.

Buxoroda, oddiy oilada tug'ilib o'sgan, boks bo'yicha jahon chempioni Abbas Atoyev, futbol bo'yicha O'zbekiston nogiron-amputantlar terma jamoasi jahon chempioni unvoniga sazovor bo'lib, xalqaro musobaqalarda Vatanimiz sha'nini munosib himoya qildi.

Poytaxtimizda yuksak saviyada o'tkazilgan «Universiada-2007» talaba-yoshlarning katta sport musobaqasi olovqalb va serg'ayrat yoshlar uchun chinakamiga go'zallik va mahorat bayramiga aylandi.

Asr qurilishi, deya e'tirof etilgan 223 kilometrlik «Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on» temir yo'li mamlakatimiz taraqqiyotining yangi ufqlarini ochdi. Qadimiy va hamisha navqiron Samarqandning 2750, Marg'ilonning 2000 yilligi keng nishonlandi...

Aslida, bular amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarining bir qismi, xolos.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan qabul qilingan «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmon ko'plab yosh oilalar hayotiga quyoshdek nur olib kirdi. Tan olaylik, oila qurayotgan yoshlarning ko'pchiligi dastlabki yillarda ota-ona qaramog'ida yashaydi. Ba'zilari esa ota-onaga boqimanda bo'lib qolishi ham mumkin. Yosh oilalarga berilayotgan kreditlar ularni boqimandalikdan asrab, hayotda mustaqil yo'lini topib, o'zini tiklab olishida katta madad bo'ladi. Kreditni qaytarishda birinchi navbatda oila boshlig'i javobgar, albatta. Bu jihat oiladagi munosabatni, totuvlikni yanada mustahkamlaydi. Yoshlar o'z oilasi farovonligi yo'lida xizmat qilish barobarida jamiyat, mamlakat ravnaqiga ham hissa qo'shadilar.

O'tgan yilda barchamiz yana bir tarixiy ahamiyatga molik voqeaning ishtirokchisiga aylandik. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bo'lib o'tgan saylovda zo'r uyushqoqlik va safarbarlik ruhi yaqqol sezildi. Dunyoning ko'p mamlakatlardan kelgan xalqaro kuzatuvchilar e'tirof etganidek, mazkur saylov demokratik tamoyillarga mos, oshkora va xolis o'tdi. Buni saylovning muqobilik asosida o'tgani ham tasdiqlab turibdi.

Xalqimizning azmu qarorini ifoda etgan ushbu ijtimoiy-siyosiy voqea mamlakatimiz hayotida alohida ahamiyatga ega. U Prezident Islom Karimov boshchiligida mamlakatimizda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatni, islohotlar va bunyodkorlik yo'lini butun xalqimiz, jumladan yoshlar ham yakdillik bilan qo'llab-quvvatlaganini yana bir bor isbotladi. Yoshlar nashriga yoshlar jamoasidan kelgan xatlardan birida: «Biz muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov yana ko'p yillar xalqimizning, mamlakatimiz yoshlarining tayanchi va suyanchi bo'lib qolishini istaymiz! Yurtboshimizga ozod Vatanimizning gullab-yashnashi yo'lida olib borayotgan ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!» – deyiladi.

Ha, o'tgan yil endi tarixga aylandi. Tarix oldida yuzimiz yorug' bo'ldi.

Yangi – 2008-yilga katta rejalar, ezgu maqsadlar bilan qadam qo'ydik. Yoshlar yilini yoshlikka xos g'ayrat-shijoat, jo'shqinlik bilan boshladik. Orzu-niyatlarimiz katta. Mustaqilligimiz ham bolalik, o'smirlik davridan o'tib, yoshlik fasliga kirdi. Yoshlik

– kuch-quvvat, aql-salohiyat, mehr-muruvvat va saxovat deganidir. Yangilik, o‘shish, o‘zgartirish, taraqqiyot, bunyodkorlik, mehnatkashlik, nimalarga qodir ekanligini namoyon etishga intilish — yoshlikka xos fazilatlardir. Shu ma’noda, Yoshlar yilidan butun xalqimiz, ayniqsa oddiy odamlar ko‘p narsa kutadi. Har bir odam «Yoshlar yili» hayotimizga, turmushimizga nimadir o‘zgartirish olib kiradi, deb kutadi. Yoshlik esa hamisha o‘z hayot yo‘lini, o‘z taqdirini o‘zi yaratadi.

Muzrabot agroservis kasb-hunar kolleji direktori, Oliy Majlis Senati a‘zosi Panji Mustapov matbuotdagi chiqishlaridan birida shunday mulohaza bildiradi: «Bugun mamlakatimizda yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlaru e‘tiborni ko‘rib, ba‘zan qani endi, men ham yosh bo‘lib qolsam, deyman. Buning jiddiy sabablari bor. Hayotning jo‘shqin onlari, unutilmas xotiralariyu shirin damlari aynan yoshlik bilan bog‘liq. Uni mazmunli o‘tkazishga, ertangi kunga munosib poydevor yaratishga bo‘lgan e‘tibor bizning yoshligimiz kechgan sobiq sovetlar davrida ko‘ngildagidek bo‘lgan emas. Bugun esa yoshlarga g‘amxo‘rlik tom ma’noda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Menda hozirgi yoshlarga bo‘lgan havasning uyg‘onishiga ham ularga ana shu imkoniyatlarning yaratib berilayotgani sababdir.»

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2008-yilning «Yoshlar yili» deb e‘lon qilingani, «Yoshlarimiz bugunimiz va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir» deya ishonch bildirilgani yosh avlodga otalarcha g‘amxo‘rlik ekanligini har bir tiyrak nigohli yigit-qiz chuqur his etadi. Yoshlarimiz ham bildirilgan bunday yuksak ishonchga o‘z bilimi, iste’dodi, izlanishi va intilishlari bilan munosib javob berishga harakat qiladi.

Yurtboshimiz hamisha yoshlarga qarata, ota-bobolarimiz kim bo‘lganini yodda tutishni, ulug‘ ajdodlarga munosib avlod bo‘lishni uqtiradilar. Hammamiz ham ulkan madaniyatga, boy ma‘naviyatga va jahon sivilizatsiyasiga katta ta‘sir ko‘rsatgan millat vakillari ekanligimizdan hamisha g‘ururlanamiz. Yoshlar esa shu bilan birga, buyuk ajdodlarimiz shon-shuhratiga, bugungi O‘zbekistonimizning obro‘-e‘tiboriga, davlatimiz rahbarining ishonchiga munosib bo‘lishga harakat qiladi.

Yoshlarning yaratuvchanlik, bunyodkorlik salohiyati mamlakatning kuch-qudratini, ertangi porloq istiqbolini belgilashi sir emas. Vatanimizning buyuk kelajagi halol mehnat, aql-zakovat, g'ayrat-shijoat bilan bunyod etilishini, barcha islohotlar, yangilanishlar yoshlarimizning ertangi baxtli va farovon hayotini ko'zlab amalga oshirilayotganini yurtdoshlarimiz yaxshi anglab yetadi.

Mamlakatimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi ulug' maqsadlarning izchillik bilan davom ettirilishi yoshlarning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi, buyuk kelajagimizga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Yoshlarga barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, ularga alohida g'amxo'rlik ko'rsatish hamisha davlatimiz rahbarining diqqat markazidagi masalalardan biri bo'lib kelgan. Joylarda zamonaviy litsey, kollej binolarining qurilishi, viloyatlar va tumanlarda yoshlar markazlari, ijtimoiy xizmat markazlarining tashkil etilishi, ilm-fan, sport va boshqa sohalarda yoshlarning muntazam rag'batlantirilishi buning yorqin isbotidir.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi va ko'magi bilan tashkil etilayotgan «Yoshlar ijtimoiy xizmatlari markazlari»ning muhim jihati, markazlar yoshlarga o'z muammolarini hal qilish, unga yechim izlashni o'rgatadi. Yoshlarni ijtimoiy muhofazaga oladi. Markazlarning faoliyati tepadan emas, balki quyidagilarning taklif-istaklarini inobotga olgan holda tashkil etiladi.

— Yurtboshimiz tomonidan yosh avlodga ko'rsatilayotgan yuksak ehtirom katta avlod vakillarining qalbini ham to'lqinlantirib yubordi, — deydi O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid. — Eng asosiysi, yoshlarimiz shu ehtiromga munosib bo'lsalar, o'zlariga yaratilgan katta imkoniyatlardan vaqtni boy bermay, yoshlik paytidayoq foydalanib qolsalar, elu yurtimizning bilimli, tarbiyali, fidoyi insonlari bo'lib kamol topsalar.

Yoshlar yilida barchamiz yoshlar uchun, ular esa Vatan, millat uchun xizmat qiladi. Buning uchun esa yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish juda muhim. Fermerlar, tadbirkorlar, ishlab chiqaruvchilarning yangi, yosh avlodi kamolga yetmoqda. Bu yoshlarga e'tibor mamlakatimizning ertangi rivojlanishiga bo'lgan e'tibordir.

2008

O'ZBEKISTON YOSHLARI

Yoshlik inson hayotining eng go'zal, eng navqiron, qaytarilmas fasli. Fursatni ortga qaytarib bo'lmaydi, degan hikmat bor, bu to'g'ri, ammo qay bir ma'noda, vaqtni ham ortga qaytarsa bo'ladi, deyish mumkindir, ehtimol, chunki tabiat fasllari har yili qaytarilaveradi, kuz va qishda daryo o'zani pasaysa, bahor va yozda yana ko'tariladi. Bu jarayon muntazam ravishda takrorlanadi. Biroq inson hayotiga nisbatan shunday qiyosni ishlatish mumkinmi? Umr fasllari qaytariladimi? Ne tongki, umr daryosi bir bora o'qib o'tadi, xolos.

Inson umrini besh kunlik deydilar. Shunday bo'lsa, yoshlikning muddati qancha ekan?

Do'ppini bir aylantirguncha umr o'tib ketarmish... Nahotki, yoshlik davroni shunchalar qisqa bo'lsa?..

Yoshligingning qadriga yet, yoshligingda o'qib qol, yoshligingni yelga sovurma, deyilgan dono gaplar behudaga aytilmaganini fursat o'tgan sayin teranroq anglab borasan. Vaqti-soati kelib, yoshligimiz o'tgan yo'llarga boqib, afsusnadamat chekmaymizmi, o'kinmaymizmi?

Yoshlik faqat bahor va gullar, sevgi-muhabbat, visolu hijrongina emas, u insonga berilgan imkoniyat, mas'uliyat, otana, xalq va Vatan oldidagi burchdir. Bu burchni kim qanday tushunadi, bu mas'uliyatga kim mehnati, ishi bilan qanday javob beradi, bu imkoniyatdan kim qanday foydalanadi? Kun kelib, qalb o'rtanmasligi, pushaymon bo'lmaslik uchun bu kabi og'ir savollarni har bir yosh o'z yuragiga berishi va undan javob olishi kerak.

Yoshlarimizning o'zigagina xos tabiati, milliy xususiyatlari shundaki, ular ota-onaning oq suti, non-tuzi va ishonchini oqlashga, el-yurtning umidini puchga chiqarmaslikka, ulug'ajdodlarimizning sha'ni-shavkatiga munosib bo'lib yetishishga intilib yashaganlar. Tarixning turli davrlarida Vatanning yukini ko'tarib, xalqning og'irini yengil qilish, ona tuproqni bosqinchi yovlarga berib qo'ymaslik o'zbek yoshlarining hayot aqidasi, a'moli bo'lgan. Yoshlik jo'shqinligi, shijoat va jasorati el-yurtning or-nomusini, g'ururini ko'z qorachig'idek asrashga undagan.

Bunday qahramonlarni xalq o'z dostonlari, ertak va afsonalarida to'lib-toshib kuylagan. Masalan, «Alpomish» dostonida yosh Hakimbekning o'z yori, el-yurtning or-nomusi uchun qalmoq pahlavonlari bilan kurash maydoniga chiqqan, qiyin ahvolda qolganida Barchinoy ham bel bog'lab, kuch sinashga tayyor turgan lavhani eslang. Bu manzarada o'zbek yoshlari qadim-qadimda ham mard va jasur, g'ururli, diyonatli, vatanparvar bo'lgani ifodalangan.

Eramizgacha bo'lgan davrda dushmandan nafaqat o'g'li Sparganising qasosini olgan, balki ota-bobolar yerini ham saqlab qolgan ulug' momimiz To'maris botir yurak, temir bilak bilan jangga kirib, bosqinchi dushmani tor-mor etganida hali navqiron yigitlar orzusidagi yosh juvon edi.

Islom olamida eng yetuk va mashhur muhaddis, buyuk bobomiz Imom Buxoriy o'n yoshga to'lmaslaridan hadis ilmini o'rganmoqqa kirishganlar. Bunga ming yillardan-da ko'p bo'ldi. O'n olti yoshlarida onalari va akalari bilan Hajga borganlar. Hadisi shariflarni to'plab, tartibga solish niyati paydo bo'lganida ham yigirmaga hali to'lmagan edilar.

Yovqur, chapdast va qaytmas bo'lgan bobokalonlarimiz Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi boshliq nisbatan kichik lashkar 1220 yillarda mo'r-malaxdek yopirilgan son-sanoqsiz yov bosqinchilarining shiddatli yurishini qaytarganida, ularning bir necha qaqshatqich hujumlarini tor-mor etganida, ozodlik, mustaqillik uchun aziz jonini tikkanida sarkardalarning ikkalasi ham yosh-yosh yigitlar edi.

Buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur bundan salkam yetti yuz yil muqaddam yurtda osoyishtalik, tinchlik, barqarorlik o'rnatish, bosqinchilarning 150 yillik hukmronligiga chek qo'yish, millatni yagona bayroq ostida birlashtirish, ulug' va qudratli davlat barpo etish yo'lidagi shon-sharafga burkangan kurashini boshlaganida 25 yoshdagi bo'z yigit edi.

Mirzo Ulug'bek olti yuz yildan nariroq muddatda Movarounnahr va Turkistonni boshqara boshlaganida o'n sakkizga to'lgan yigit edi. Shu yoshidayoq osmon ilmi — falakiyot borasidagi dastlabki kashfiyotlari bilan tilga tushgandi.

Qariyb olti yuz yil ilgari Nizomiddin Mir Alisher bolaligida aytgan bir g'azal matla'iga zamonaning Lutfiydek ma'lum va

mashhur soʻz zargari oʻn ming misra dilbar baytini almashtirmoqchi boʻlgan. Bu lutfdagi nozik mubolagʻa-yu, ifrotni inkor etmagan holda yosh Navoiyning isteʼdodiga naqadar yuksak baho berilganini eʼtirof etmaslikning iloji yoʻq.

Buyuk Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida yozilishicha, Farhodning noyob qobiliyati juda yoshligidanoq namoyon boʻlgan. «Oʻqib oʻtmak, oʻqib oʻtmak shiori, Qolib yodida sahfa-sahfa bori... Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm, Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm...» Bugun Farhod ismli isteʼdodi yorqin bolalarni koʻrganingda, tomirlarimizda favqulodda aql-idrok, tafakkur sohibi boʻlgan ajdodlarning qoni oqayotganiga yana bir karra amin boʻlasan, kishi.

Nisbatan yaqin tariximizga kelsak, yulduzi erta soʻngan Usmon Nosir yoshlik abadiyligiga yorqin misol boʻla oladi. Bu yorugʻ olamda oʻttiz yil ham umr koʻrmagan boʻlsa-da, undan abadiyatga daxldor adabiy meros qoldi.

Asrimizning yigirmanchi-oʻttizinchi yillarida Germaniyada oʻqib kelib, koʻpdan-koʻp yaxshi orzu-niyatlar bilan yashayotgan millatimizning eng sara, eng asl qiz-oʻgʻlonlari ayni yoshlik fasli barq urgan paytda yoppasiga qatagʻonga duchor boʻlishgan.

Sobiq shoʻrolarning istibdod tuzumi vaqti-vaqti bilan millat daraxtining eng toza gullariga, barq urib ochilish arafasida boʻlgan gʻunchalarga, navnihollarga qiron solib turgan. Chunki u tuzum eng oliy goʻzallik — ozodlik va toʻgʻri soʻzning dushmani edi. Qatʼiyatli, adolatparvar yoshlar siymosida oʻz dushmanini koʻrardi.

Ota-bobolarimiz yoshlik jasorati, gʻayrat-shijoat, zehn-zakovatlari bilan, yuksak maʼrifat va madaniyat egasi ekanliklari bilan dunyoni hayratga solib kelayotgan buyuk tariximizni yaratdilar.

Azal-azaldan oʻzbek yoshlari dono va isteʼdodli, aql-idrokli, pok va halol boʻlishgan. Shu fazilatlar bilan xalqimiz nomiga gard yuqqani qoʻyishmagan. Bugungi metin saf — navqiron yoshlarimizning tomirlarida ham bashariyat maʼnaviy xazinasiga ulkan hissa qoʻshgan Imom Buxoriy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi benazir mutafakkirlarimizning qoni joʻsh

urmoqda. Ular o'z iste'dodini, Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqatni juda yoshlik chog'laridanoq namoyon qilmoqdalar.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qib, jahon andozalari darajasida bilim olib, eng zamonaviy kasb-hunarlarini, texnika va texnologiyalar sir-sinoatlarini qunt bilan o'rganayotgan yoshlarimiz o'z emas. Ular millat manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan, ona-Vatanga sadoqatli yigit-qizlar bo'lib yetishishmoqda.

Yaqin yillarda matbuotda o'n ikki yoshli hamyurtimiz Murodjon Sharipovning Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti talabasi bo'lgani haqida yozilgan edi. U astoydil o'qib-o'rganib, bugungi kunda yanada katta muvaffaqiyatlarga erishganiga shubha yo'q.

Markaziy Osiyoning eng yosh grossmeysteri Rustam Qosimjonov xalqaro miqyosda g'oliblikni qo'lga kiritganida o'n olti yoshda edi. Iroda To'laganova, Toshtemir Muhammadiyev singari yosh yigit-qizlarimizning sportdagi g'alabalari tufayli Vatanimiz bayrog'i jahon musobaqalarida yuksak hilpiramoqda.

Maktab va litseylarimizning iqtidorli o'quvchilari xalqaro fan olimpiadalarida qatnashib, Vatanimiz nomi bir qancha rivojlangan davlatlar qatorida tilga olinishiga erishmoqdalar.

Xalqaro festivallaru anjumanlarda musiqa, tasviriy san'at, aniq fanlar borasida yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar haqidagi xabarlarini tez-tez matbuotda o'qib, televideniya ko'rib, faxru g'ururdan ko'ksimiz tog'dek yuksaladi.

O'zbekistonimizning ko'plab yigit-qizlari AQSH, Yevropa mamlakatlarining yetakchi dorilfununlarida tahsil olmoqdalar. Bolalarimizni dunyoning rivojlangan davlatlarida o'qitishni, O'zbekiston yoshlarining dunyoga chiqishini asrimiz boshida xalqimizning eng ilg'or vakillari bo'lmish jadidlar ham orzu qilishgan. Mustaqillik bergan imkoniyat tufayligina ularning ezu niyatlari amalga oshdi.

Farzandlarimizning aqliy salohiyati yuqori ekanligidan dalolat beruvchi bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. O'zbekiston — ulkan imkoniyatlar mamlakati deyilganda xalqimizning intellektual salohiyati tushuniladi, albatta. Zero, o'zbek millatining, o'zbek farzandlarining qobiliyat, zehn-



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/1848> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1848> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/1848>